

O'ZBEKISTON RESPUBLIKASI
OLIY TA'LIM, FAN VA INNOVATSIYALAR VAZIRLIGI

FARG'ONA DAVLAT UNIVERSITETI

**FarDU.
ILMIY
XABARLAR**

1995-yildan nashr etiladi
Yilda 6 marta chiqadi

2024/6-SON
ILLOVA TO'PLAM

**НАУЧНЫЙ
ВЕСТНИК.
ФерГУ**

Издаётся с 1995 года
Выходит 6 раз в год

M.M.Kaxarova, D.A.Muxammadaminova	
Dars samaradorligini oshirishda til o'rganuvchilarning o'zlashtirish jarayonini baholash	538
M.V.Nasridinov	
Buyruq nutqiy aktlarining tilshunoslikdagi ijtimoiy-madaniy omillar bilan bog'liqligi	542
Sh.H.Nuritdinova	
Online english language learning and its promotion	547
M.M.Nurmatova	
Development of intercultural communicative competence	551
M.M.Nurmatova	
The importance of "Face" phenomenon in uzbek and english communication	553
Z.Sh.Pazilova	
Nemis taufen (suvga cho'mish marosimlari) leksik birligining lingvokulturologik tadqiqi.....	556
D.R.Ubaydullayeva	
Nutq so'zlashda qo'rquvni yengish: sabablar va takliflar.....	559
Ш.Ё.Усмонова	
Анализ семантики ландшафтных терминов в узбекском и английском языках и особенности их употребления.....	562
Sh.M.Yusufjonova	
Milliy mentalitet va idiomalar: memis va o'zbek frazalogizmlarining madaniy ta'siri	566
Sh.M.Yusufjonova	
Nemis va o'zbek frazalogizmlarida xalqning dunyoqarashi: madaniyat va tilshunoslik asosida	570
S.A.Yusupova, D.A.Ganiyeva	
Hurmat konsepti va stilistik vositalarning o'zaro uyg'unligi.....	574
F.B.Abduraximova	
Ingliz va o'zbek tillarida okkazional so'zlarning lingvokulturologik xususiyatlari	577
A.O.Oxunov	
Ingliz tilida wh his-hayajon gaplarining turlari va sintaktik vazifalari.....	582
D.K.Jumaniyazov	
Developing language skills and cultural competence in english through films	586
Д.Ш.Ибрагимова	
Эффективность использования театрализации в обучении иностранного языка.....	589
Д.Х.Муротова	
Лингвокультурологическое исследование речевого акта извинения	596
F.B.Abduraximova	
O'zbek va ingliz tillarida affiksatsiya usulida so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari.....	599
Sh.F.Latipov	
Lingvistik bo'shlinqi to'ldirishning 6 xil yo'li	604
Г.Т.Галимуллина	
Сопоставительный анализ фразеологических единиц с компонентом драгоценные камни и металлы английского и русского языков во фразеосемантическом поле «Доброта»	608
M.A.Ahundjanova	
Foreign languages and their teaching methodologies	611
F.T.Raximova	
Nutqiy aktlarni ifodalovchi leksik vositalar	615
Sh.Z.Xolmatov	
The history of argots' origin in english speaking countries, Russian and Uzbekistan	618
T.R.Madinakhan	
Kinoyaning kommunikativ-pragmatik xususiyatlari ifodasiga nazariy yondashuvlar	623
Z.A.Qochqorova	
O'zbek va ingliz tillarida "To'y – wedding" mavzusidagi paremiologik birliklarning qiyosiy tadqiqi	628
M.B.Yusupova	
O'zbek va ingliz tillarda evfemizatsiyalashgan maqol hamda matallarda milliy madaniy kod tahlili	633



**O'ZBEK VA INGLIZ TILLARIDA AFFIKSATSIYA USULIDA SO'Z YASALISHINING
O'ZIGA XOS XUSUSIYATLARI**

**ОСОБЕННОСТИ СЛОВООБРАЗОВАНИЯ С ПОМОЩЬЮ АФФИКСАЦИИ В
УЗБЕКСКОМ И АНГЛИЙСКОМ ЯЗЫКАХ**

**SPECIFIC FEATURES OF WORD FORMATION THROUGH AFFIXATION IN UZBEK
AND ENGLISH**

Abduraximova Feruza Boxadirovna

Farg'onan davlat universiteti Ingliz tili va adabiyoti fakulteti (PhD) katta o'qituvchisi

Annotatsiya

Ushbu maqolada o'zbek va ingliz tillarida affiksatsiya usuli orqali so'z yasalishining o'ziga xos xususiyatlari qiyosiy tahlil qilingan. Tadqiqotda affiksatsiya orqali so'z yasalishining morfoloqik, semantik va funksional jihatlari, shuningdek, bu jarayonning milliy tafakkur va lingvokulturologik omillar bilan bog'liqligi o'rjanilgan. Har ikki tilning leksik tizimidagi affiksatsiya jarayonining umumiyligi va farqlari aniqlangan bo'lub, so'z yasash usullari, ularning tuzilishi va qo'llanilishi misollar orqali ko'rsatilgan.

Аннотация

В статье проводится сравнительный анализ словообразования через аффиксацию в узбекском и английском языках. Исследуются морфологические, семантические и функциональные аспекты словообразования через аффиксацию, а также их связь с национальным мышлением и лингвокультурологическими факторами. Выявлены сходства и различия в процессе аффиксации в обеих языковых системах, представленные на примерах.

Abstract

The article provides a comparative analysis of word formation through affixation in Uzbek and English. It examines the morphological, semantic, and functional aspects of affixation, as well as its connection to national thinking and linguocultural factors. The similarities and differences in affixation processes within the lexical systems of both languages are identified and illustrated with examples.

Kalit so'zlar: affiksatsiya, so'z yasalishi, morfologiya, semantika, lingvokulturologiya, milliy tafakkur, qiyosiy tahlil.

Ключевые слова: аффиксация, словообразование, морфология, семантика, лингвокультурология, национальное мышление, сравнительный анализ.

Key words: affixation, word formation, morphology, semantics, linguocultural studies, national thinking, comparative analysis.

KIRISH

Til va madaniyat o'tasidagi munosabat nihoyatda murakkab hamda ko'p qirralidir. Zamonaviy dunyoda turli xil millatlar yashaydi va, tabiiyki, ularning madaniyatları ham turlicha bo'ladi. Insonlar muloqot davomida foydalananayotgan so'zlarda ham millatning ruhi va dunyoqarashi aks etadi. Turli madaniyat vakillari doimiy ravishda bir-biri bilan aloqada bo'ladi, bir-birining xususiyatlarini oladi.

Har bir madaniyat o'zining muayyan tiliga ega bo'lib, u ana shu madaniyat vakilining aloqa vositasi hisoblanadi. Til bu madaniyatning bir qismidir, uni yuzaga chiqaruvchi, namoyon etuvchi tuzilmadir. Insonlar til orqali o'zaro muloqot qiladilar, tabiiyki, bu jarayonda, albatta, so'zlar ishtirok etadi. Biz o'z ishimizning ushbu bobida har ikki tilda yasama so'zlarining o'zaro o'xshash va farqli jihatlarini yoritishga harakat qildik.

S.G.Ter-Minasovaning fikriga ko'ra, so'zni bir predmetning yoki tushunchanining nominativ belgisi deb qarash kerak emas, balki insonlarni o'rab real vogelikning "parchasi" deb qarash lozim.

Bu parcha inson ongidan o'tadi va aks ettirish jarayonida milliy jamoatchilik ongiga asoslanib, o'ziga xos xususiyatlari orqali ifodalanadi. Turli xil millatlar borliqdagi haqiqatlarni anglashda, ularni ifodalash uchun so'zlarga tayangan holda nomlaydilar. Avvalo, bunda yashash sharoitlari turlicha ekanligi ham ahamiyat kasb etadi [5; 183].

Shunga asosan, yasama so'zlarni tahlil qilishda, avvalo, so'zlarning millat ongida qanday gavdalanishi va qo'llanilish doirasini o'rganish muhimdir. Yasama so'zlarda milliy tafakkurning namoyon bo'lishini aniqlash qo'shma so'zlarga nisbatan mushkulroqdir. Ingliz va o'zbek tili qanchalar bir-biridan uzoq bo'lsa ham, so'z yasash borasida o'zaro o'xshashliklar mavjud.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Ushbu tadqiqotda o'zbek va ingliz tillaridagi affiksatsiya jarayonlari asosiy e'tiborda tutilgan. Bu borada quyidagi masalalar tadqiqotning nazariy asosini tashkil qildi. Affikslarning shakli tuzilishi va ularning so'z yasalishidagi funksiyalari o'rganilgan. Sh. Rahmatullayevning "O'zbek tilining etimologik lug'ati" (2000) va Mahmud Qoshg'ariyning "Devonu lug'otit turk" (1960-1967) kabi manbalari asosida o'zbek tilida affikslarning rivoji kuzatilgan. So'zlarning ichki shakli va ularning milliy tafakkurga bog'liqligi, N.Mahmudovning "Til tilsimi tadqiqi" (2017) asaridagi tahlillari asosida ko'rib chiqilgan. Ingliz tilida semantik o'zgarishlar Macmillan Essential Dictionary (2005) kabi zamonaviy manbalarda ko'rsatib berilgan. Milliy va madaniy tafakkur o'ziga xosliklari, S.G. Ter-Minasova va M.M.Filippova kabi olimlarning ishlari asos qilib olingan. Tadqiqotda qo'llangan metodlar quyidagilarni o'z ichiga oladi. qiyosiy-tarixiy metod, deskriptiv metod, Morfologik-semantik tahlillar amalga oshirildi.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

So'zlarni tahlil qilish davomida ularning ichki shakli yoki etimologiyasiga murojaat qilish orqali, har bir so'zning tub ma'nno mazmun-mohiyatini ko'rishimiz mumkin. So'zlar atrof-muhitdagi vogelikning va milliy tafakkurning ma'nolarini o'zida jamlovchi leksik birliklardir. So'zlarning ichki shakliga e'tibor bergen holda, ularning mazmun-mohiyati va millatning o'ziga xos milliy qarashlarini ko'rishimiz mumkin. Masalan, rus tilida *подушка* (*yostiq*) so'zi bu quloq ostiga qo'yiladigan narsa yoki buyum (*под ухо*), ya'ni o'zbek tilida *yostiq* – bosh ostiga qo'yib yetish, yonboshlash, suyalish uchun ishlataladigan yumshoq buyum. (О'ТИЛ II.2020 49 б.) Yat – fe'li "*moyillik*" "*istash*" qadimgi turkiy tilda "*uzala tushmoq*" ma'nosini anglatadi[4; 174]. Ingliz tilida *pillow* – so'zi lotincha *pulvinus*(*yostiq*) so'zidan o'zlashgan. Ba'zan so'zlarning ichki shakli yaqqol sezilib turadi. Bunga rus tilidagi so'zni misol tariqasida ko'rishimiz mumkin, "*под ухо*" aynan predmetning nima uchun mo'ljalanganligining ifodasi, o'zbek tilida qisman "*uzala tushmoq*" ma'nosini ko'rishimiz mumkin. Bu tillardan farqli ravishda ingliz tilida ichki shakl yaqqol bilinmaydi. So'zlarning qay tarzda yaratilishi va ularning qanday ma'nno anglatishi millatning tafakkuriga asosan namoyon bo'ladi. Ba'zan so'zlarning ichki shakli so'zdan yaqqol anglashiladi. Masalan, ingliz tilida *breakfast* (*nonushta*) qo'shma so'zining birlamchi ma'nosini uning tarkibidagi so'zlarga aloqadordir *break+fast* (*ro'zani buzmoq, ro'za tutishni to'xtatmoq*), ikkilamchi ma'nosini och *qolishni to'xtatishni* anglatadi. Rus tilida *завтрак* (*nonushta*) so'zi aslida "за умрок" ertalab taom tanavvul qilish ma'nosini bildiradi [6; 76]. O'zbek tilida "*nonushta*" ertalabki non-choy, xo'rak. (О'ТИЛ III.2020. 58 б.) O'zbek xalqining non-choy asosiy taomlanish yeguligi bo'lganligi uchun ertalabki taomlanish non so'zi bilan assotsiasiya qilib nomlanganligini taxmin qilsak bo'ladi. Albatta, har bir xalqning o'ziga xos milliy tafakkur tarzi mavjud. Mashhur amerika tilshunosi benjamin Li Uorf "Agar Nyuton inglizcha gapirmaganida, inglizcha o'ylamaganida edi, uning koinot haqidagi buyuk kashfiyoti bir qadar boshqacharoq bo'lar edi" degan g'oyani ilgari surganida, ana shu ingliz tili asosidagi o'ziga xos ingliz tafakkur tarzini nazarda tutganligi tabiiy. Har bir xalq borliqni ko'rishni, idrok etishni o'ziga xos tarzda ko'radi, eshitadi, zavqlanadi. Misol uchun *sinchalak* degan qushni nomlashda o'zbek xalqi uning harakatini asos qilib olgan. Bu qush tez harakat qiladi ("chit-chit") o'zbeklar shu tez harakatni inobatga olgan bo'lsa, rus xalqi bu qushning rangiga e'tibor bergenlar shu bois uni *сицица* deb nomlaganlar. Ingliz tilida bu qush *titmouse* deb nomlanadi va uning kichikligi nomlashda asos qilib olingan. Shuningdek, o'zbek xalqi tovuqning bolasi chiqaradigan tovushni "*jip-jip*" deb eshitadi va uni jo'ja deb ataydi. Inglizlar bu tovushni "*chick-chick*" deb eshitadi va chicken deb nomlaydi. Rus xalqi "*цип-цип*" deb eshitgani uchun *цыплёнок* so'zi bilan nomlaydi [1; 141]. Bu so'zlarning mazmun-mohiyati ularning nomlanishi bilan bog'liqligi uch til misolida yaqqol namoyon

TILSHUNOSLIK

bo'layotganligining dalilidir. Bu tillarda asl so'zlovchilar o'z tillarida ishlataladigan so'zlarning ongli va ongsiz ravishda mayda detallarini inobatga olib qo'llaydi.

Quyida inglez va o'zbek tillaridagi yasama so'zlarning milliy-madaniy jihatlarini qiyoslab chiqamiz:

KEKIRDAK – qizilo'ngachning boshlanish qismi. Bu ot qadimgi turkiy tilda "oshqozonda to'plangan havoni qizilo'ngach orqali chiqar" ma'nosini anglatuvchi kekir - fe'lidan [2; 88] -dak qo'shimchasi bilan yasalgan. Kekir+dak = kekirdak.

Bu so'zning tarkibini boshqacha talqin qilish ham mumkin: kekir -fe'liga "takror" ma'nosini ifodalovchi -la qo'shimchasining -da shakli qo'shilgan va bu so'zdan -k qo'shimchasi bilan ot yasalgan:

Kekir + da =kekirda + k = kekirdak [4; 200].

KEKIRDAK – ot so'z turkumi. 1. Odam va umurtqali hayvonlar nafas yo'lining yuqori qismi. 2. Bo'yinning old qismi; tomoq. (O'TIL II. 343 b.)

Ingliz tilida bu so'z *ADAM'S APPLE* (*Odamning olmasi*) – (noun) ot so'z turkumi. The lump at the front of a man's throat [4; 199,200].(Erkak tomog'ining oldidagi bo'lak). Bu so'zda Adam olamda birinchi yaratilgan erkakning ismi.

Ushbu so'z ma'nosining kelib chiqishi xalq nigohi, milliy qadriyatları, e'tiqodi va milliy ongtafakkuriga borib taqaladi. Ingliz tilida bu so'z Odam Atoning olmasi degan ma'noni bildirmoqda, ammo uning kelib chiqishi hammaga ma'lum bo'lgan rivoyatga bog'lanadi, ya'ni Momo Havo Odam Atoga ta'qilangan olmani yeb ko'rishga ishontiradi va u bir tishlam tishlaydi hamda olma tomog'da bo'rtma hosil qilib qoladi. Hikoyaga ko'ra, Xudo Odam Atoning tomog'iga uning gunohini eslatish uchun bir bo'lak olmani tomoqda qoldiganligi va u aynan erkaklarda bilinib turishi nazarda tutilgan.

Boshqa tavsiqga ko'ra, bu Odam Ato va Momo Havo bilan bog'lanmagan, ya'ni bu so'z ingliz tilida kamida 1625 yildan beri ishlataladi. Bu so'z boshqa Yevropa tillaridagi so'zning analogi deb qaraladi. Masalan, Fransuz tilida – *Adam's morsel* (*Odamning luqmasi*); Italian tilida - *pomo d'Adamo*; Nemis tilida – *Adamsapfel* tarzida ishlataladi.

O'rta asr arab tibbiyot vakillari tomoq anatomiyasi bilan shug'ullanishgan va ular larengial o'simtaning nomini meva bilan izohlab "anor" "pomegranate" sifatida nomlashgan. Bunday nom berilishining sababi noma'lum. Bu jismoniy o'xshashlikmi – anor terisining tuzilishi ularga o'simtani qoplaydigan terining tuzilishini eslatganmi? Yoki bu ramziy narsami? Anor tarixdan adabiyot va dinda ramziy ma'no kasb etgan. Masalan, Injilda shohi Sulaymonda anor bog'i bo'lgan. Payg'ambarimiz Muhammad (s.a.v.) anor haqida: "Anorni iste'mol qiling, chunki u hasad va nafrat tizimini tozalaydi" deydilar[8].

Tabiblarning larengial o'simtani "anor" deb atashiga nima sabab bo'lishidan qat'i nazar, yevropalik yozuvchilar bu belgini uning lotincha tarjimasida ko'rishgan, "pomum grantum" va keyinchalik sinonim sifatida xuddi shu so'zni "*Pomum Adami*" tananining aynan shu qismiga nisbatan qo'llashgan. Inglizlarda anordan ko'ra olmani ishlatalish ommalashganligi uchun Odam Atoning olmasi tarzida tarjima qilingan. Anor so'zi olma so'zi bilan almashtirilgan. Hatto o'zbek tilida kekirdak olmasi, qo'shtomoq so'zleri ham ishlatalishi mumkin ekan. Ammo bu so'zlar izohli lug'atga kiritilmagan.

Ushbu misollarni solishtirar ekanmiz, kekirdak so'zi o'zbek tilida so'z yasovchi affiks yordamida yasalgan leksema bo'lib, kekir fe'l asos vazifasini bajarmoqda (fe'l + yasovchi qo'shimcha). Ingliz tilida esa bu so'z kompozitsion usulda yasalgan bo'lib, birinchi shakli hosil qiluvchi 's(-ning) tegishlilik ko'rsatkichini qabul qilmoqda (Ot+'s + ot). Bir ma'noli so'zlar har ikki tilda turlicha yasalishi bu so'zlarning kelib chiqishi va millatning milliy tafakkuri bilan bog'liq bo'lib chiqadi.

QIMIZ – (ot so'z turkumi) qum- + uz = qumuz.

Biya sutini chayqatish, shopirish bilan tayyorlanadigan shifobaxsh ichimlik. Qadimgi turkiy tilda ham shunday ma'noni anglatgan bu ot asli "chayqal", "to'lqinlan" ma'nosini anglatgan qum fe'lidan [2;35] -(u)z qo'shimchasi bilan yasalgan[4; 547].

Ingliz tilida KOUMISS (Kumis – ot so'z turkumi) O'rta Osiyo dashtlarida skif qabilalari taxminan XV asr oldin ichgan urg'ochi ot sutidan tayyorlanadigan qadimiy ichimlik. Otning suti, odatda, xom holatda iste'mol qilinmaydi, chunki u kuchli bo'shashtiruvchi ta'sirga ega, uning bu xususiyati ba'zan tibbiyotda qo'llaniladi. Shuning uchun otning suti qimizga aylantiriladi [9]. Bu so'z

har ikki tilga turkiy tildan kirib kelgan bo'lib, qimiz so'zi o'z shakli va ma'nosini deyarli o'zgartirmay o'zlashgan. Bu so'z har ikki tilda bir xil ma'no va shaklda, ya'ni nafaqat so'z tuzilishi, balki ma'nosi, uning tayyorlanish uslubi va u bilan bog'liq barcha ma'lumotlar kirib kelgan.

ISIRIQ – Is+ir+iq = isiriq (ot so'z turkumi).

Ko'p yillik dorivor o't. Bu ot qadimgi turkiy tildagi "hid tarat" – ma'nosini anglatgan "is" fe'lining -(i)r orttirma qo'shimchasi bilan hosil qilingan shaklidan -(a)q bilan yasalgan bo'lsa kerak [4;123].

Tarkibida alkaloidlar bo'lib, xalq tabobatida shifobaxsh vosita sifatida turli yo'llar bilan (jumladan, tutatib) foydalanib kelinadi. (O'TIL. II qism 229 b.)

Ingliz tilida INCENSE (isiriq, ot so'z turkumi) - in+cense

In - prefiks

Cense – (fe'l) isiriq bilan hidlantirmoq, tutatmoq, isiriq yoqmoq.

Bu so'z tarixi 6000 yildan ko'proq vaqt oldin boshlangan. Bu Mesopotamiya va Misrning birinchi buyuk sivilizatsiyalarining paydo bo'lishi bilan mos keladi. Ana shu davrda tutatqilar paydo bo'lgan. Tutatqi paydo bo'lganidan beri odamlar tomonidan ishlatalgan birinchi xushbo'y materiallardan biri hisoblanadi. Bu, ayniqsa, misrliklarni mumiyalash uchun ishlatalgan balzamlarning tarkibiy qismlarida topilgan.

Rim va Yunon dunyosida hozirgi zamongacha muqaddas yoki dunyoviy marosimlarida foydalanish davom etmoqda. U hali ham diniy marosimlarda qo'llaniladi. Shuning uchun tutatqi hidi, ko'pincha, cherkovlar bilan bog'liq.

Isiriq so'zi o'zbek tilida qadimda yasama so'z bo'lgan bo'lib, hozirgi kunda yaxlit so'zga aylangan. Ammo Sh.Rahmatullayevning etimologik lug'atida va o'zbek tilining morfem lug'atida is - ir -iq tarzida morfemalarga ajratilgan [7; 111]. Shuning uchun bu so'z tarixan yasama so'zdan hozirgi kunda tub so'zga aylangan.

Ingliz tilida ham bu so'z yasamadir. Bu so'z in- prefaksi yordamida yasalmoqda. Bu so'zning asosi har ikki tilda fe'l bilan ifodalananib, ishlatalishi va semantik munosabati bir-biriga yaqindir. Isiriq so'zi o'zbek va ingliz tillarida diniy marosimlar bilan bog'liqligi va o'zidan hid taratishi, uning shifobaxshligi bu so'zning har ikki tilda deyarli vazifasi o'xshashligini ko'rsatib turibdi. Bu so'zlar har ikki tilda asosi fe'l bilan ifodalanganligi, yasama so'zligi va qo'llanilishi har ikki tilda uning universal xususiyatidir.

G'ILDIRAK (ot) (G'ILDIRA (fe'l) + K (so'z yasovchi)). Doira shaklida yasalib, o'qqa o'matiladigan, ma'lum bir kuch ta'sirida aylanib, arava, mashina kabilarni harakatga keltiradigan qism. Bu ot eski o'zbek tilida g'yildyra – fe'liga -k qo'shimchasini qo'shish orqali yasalgan.

G'yildyra + k = g'yildyrak > g'ildirak.

Wheel (noun) – a circular object that turns round in order to make a car, bicycle or other vehicle move [3; 832].

Avtomobil, velosiped yoki boshqa transport vositasini harakatga keltirish uchun aylanadigan dumaloq obyekt.

Wheel (verb) – to move something that has wheels by pushing it.

G'ildiraklari bo'lgan narsani itarish orqali harakatlantirish.

Ingliz tilida wheel so'zi eski ingliz tilidagi hweol – aylanish uchun harakatlanmoq so'zidan kelib chiqqan.

Ushbu so'zlarga e'tibor beradigan bo'lsak, har ikki tilda so'z yasalish usuli mavjud, ammalar turlichadir. O'zbek tilida bu so'z affiksatsiya usulida yasalmoqda, ingliz tilida esa konversiya usulida yasalmoqda. Demak, so'zlarning turli usullarda bo'lsa ham, yasalishining mavjudligi ularning umumiyligini xususiyatlari, so'z yasalish usullarining o'zgachaligi ularning farqli jihatidir. Har ikki tilda so'zlarni yasashda predmetning shakli va uning vazifasi inobatga olinib, yangi so'z hosil qilinmoqda.

Bu misoldan shuni ko'rish mumkinki, ingliz tilida konversiya usulida yangi so'zlar hosil qilinishi o'zbek tiliga nisbatan ko'proq sodir bo'ladi.

Cook - pishirmoq (fe'l) – cook – oshpaz (ot)

Magic – sehrli (sifat) – magic - sehr (ot)

TILSHUNOSLIK

Ingliz tilida konversiya usulida so'zlarning yasalishining o'ziga xos xususiyati shundaki, bir necha so'z turkumida ifodalanayotgan so'z bitta so'z turkumi doirasida o'zining faolligini saqlab qoladi. Masalan, *wheel* so'zi ot so'z turkumida ko'proq qo'llaniladi.

XULOSA

Xulosa qilib aytish mumkinki, har ikki tilda so'zlarni yasovchi qo'shimchalar orqali yasalishining milliy-madaniy omillarini ochib berish birmuncha mushkul bo'lса-da, yasama so'zlarda o'zaro umumiy va o'ziga xos xususiyatlar namoyon bo'ladi. O'zbek tilida so'zlar asosan eski turkiy til asosida yasalgan bo'lса, ingliz tilida ular ko'pincha lotin yoki fransuz tili asosida hosil bo'lgan. Ingliz tilida so'zlar yasalishida qo'shimchalarga nisbatan tub so'zlarning ko'pligi va aksariyat hollarda so'zning bir vaqtida ikki yoki undan ortiq so'z turkumida ifodalanishi uning o'zbek tili uchun xos bo'lмаган jihatidir. O'zbek tilida esa so'zlar ko'proq qo'shimchalar yordamida yasalishi va ularning eski turkiy tilda ham mavjudligi o'ziga xos xususiyatidir. So'zlarning yasalishida bir-biriga qarindosh bo'lмаган tillarda milliy tafakkurning ifodasini so'zlarning semantik belgilariagi yaqinlikda ko'rishimiz ham mumkin.

ADABIYOTLAR RO'YXATI

1. Махмудов Н.М. Тип тилсими тадқиқи. Тошкент: Mumtoz so'z, 2017. – 166 б.
2. Маҳмуд Қошғарий. Девону луготит турк. II том, – Тошкент, 1960-1967. – 427 б.
3. Macmillan Essential dictionary. – 905 р.
4. Рахматуллаев Ш. Ўзбек тилининг этикологик лугати (туркий сўзлар). – Тошкент: Университет, 2000. – 600 б.
5. Тер-Минасова С.Г. Синтагматика функциональных стилей и оптимизация преподавания иностранных языков. – М., 1986. – 220 с.
6. Филиппова М.М. Взаимосвязь языка, мышления и культуры и преподавание иностранного языка// Язык, сознание, коммуникация. – М.: Макс Пресс, 2008. – С.36-124.
7. Гуломов А., Тихонов А.Н., Кўнгурев Р. Ўзбек тилининг морфем лугати. – Тошкент: Ўқитувчи, 1977. – 463 б.
8. <https://www.merriam-webster.com/words-at-play/why-is-it-called-an-adams-apple-word-history>
9. <https://www.sciencedirect.com/topics/agricultural-and-biological-sciences/kumis>